

ANNOTATION

Cherry is valued as a valuable fruit plant not only in the Republic of Uzbekistan, but also in many countries of the world, its fruits contain substances that are quickly digested and necessary for the human body.

Key words: countries of the world, substances, valuable fruit plant

O'zbekistonda yetishtirilayotgan gilos mevalari tarkibida 71,5-86,0% suv, 8,08-19,32% umumiy qand, 0,58-2,22 % pektin moddalar, 0,39-0,76 % kletchatka, 0,72-32,22 mg C vitamini, 0,34-1,70 % titrlanadigan kislota, 0,55-0,73% kul moddalari va boshqalar mavjud. Bulardan tashqari, gilos tarkibida mikroelementlardan 1,2-1,8 mg temir, 0,15-0,20 mg marganets, 80-120 mkg mis, 2,6-3,70 mkg kobal't, 0,13-0,55% kaliy ham qayd etilgan. O'zbekistonda so'ngi yillarda mevachilikni jadal rivolantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikada bugungi kunda mevali bog'larning umumiy maydoni 285 ming gektarni tashkil etmoqda, shundan gilos bog'lari 12-14% ni tashkil etadi. Respublikaning qulay tuproq-iqlim sharoitlari meva va rezavor o'simliklarning yaxshi o'sishi hamda ulardan yuqori hosil olish imkonini beradi. O'zbekistonda gilos ommaviy tarzda sevib istemol qilinadigan qimmatli danakli mevalardan biri hisoblanadi. Uning mevalari boshqa har qanday mevali o'simliklardan oldin pishib yetiladi. Respublikamizda tarqalgan uning alohida navlari aprel oxiri va may oyining birinchi o'n kunligidayoq pisha boshlaydi va bu bilan mamlakatimiz aholisini ushbu qimmatli, vitamanga boy meva bilan juda erta ta'minlash imkoniyati yuzaga keladi. Bugungi kunda mamlakatimizda ham, xorijda ham gilos mevalariga bo'lgan talab kundan- kunga ortib bormoqda va shu bois uning asosiy qismi, ayniqsa ertapishar va transportda tashishga qulay bo'lgan navlari respublikamizdan chet mamlakatlarga chiqarilmoqda, yani eksport qininmoqda, ammo gilosdan olinayotgan yalpi hosil, ayniqsa uning ertapishar va transportda tashishga qulay bo'lgan navlari ushbu talabni qondira olmayapti. Buning sababi shundaki, ertapishar va istiqbolli gilos navlaridan iborat bo'lgan bog'lar maydoni u qadar katta emas. Buning sababi erta pishar va istiqbolli gilos navlaridan payvantaglar olish masalasi bo'lib, xanuzgacha o'z yechimini topgan emas.

Asosiy qism. Dunyoning gilos yetishtiriladigan mamlakatlarida mevali o'simlik bog'larini intensiv holatga o'tkazish va ularning shox - shabbasiga eng samarali shakl berish usullarini ishlab chiqish bo'yicha qator ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda intensiv bog'dorchilik soxasini tubdan rivojlantirish davlat ahamiyatiga ega vazifa hisoblanmoqda, xususan hukumatimiz tomonidan past rentabelli maydonlarni yildan-yilga qisqartirib, ularning o'rniga intensiv bog'lar barpo etish rejalashtirilganligi ushbu sohada olib borilayotgan islohatlarga asosiy tayanch va turtki bo'ldi. Intensiv bog'lar maydonini kengaytirish va bunday bog'lar barpo qilish uchun kuchsiz o'suvchi ko'chatlar yetkazib beruvchi tizimni tashkil qilish. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi ustuvor yo'nalishlarida ham alohida ko'rsatib o'tilgan. Biroq, intensiv gilos bog'larini barpo qilish imkoniyatini beruvchi kuchsiz o'suvchi gilos ko'chatlari bugungi kunda faqatgina xorijdan keltirilmoqda. Shu bois, mamlakatimizning o'zida bunday ko'chatlar ko'paytirishning samarali usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2020 - yil 11-maydagi "Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-4709-son qarorida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmini ko'paytirish orqali ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan taminlash hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ekin maydonlari sezilarli darajada kengaytirish zarurligi ko'rsatilgan. Shuningdek, tumanlarni meva - sabzavotchilik klasterlari hamda kooperatsiyalarga birlashtirish kabi amaliy choralar ko'rilmoqda. Shuning uchun mahalliy va introduksiya qilingan meva navlari ichida yuqori hosilli, meva sifati bo'yicha esport talablariga mos navlarni tanlab olib, amaliyotga

joriy qilish maqsadida o'tkazilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga egadir. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati sharoitida gilosning 8 ta navi bo'yicha o'tkazilayotgan tadqiqot natijalari bayon qilingan. Malumki qishning quruq kelishi va bahorning o'zgaruvchan iqlimi ayniqsa gilos gulining changlanish davrida haroratning keskin ko'tarilib ketishi hosildorlikni cheklovchi omillardandir. Shuning uchun navning hosildorlik va ekstrimal iqlim omillariga chidamlilik xususiyatlariga ega bo'lgan navlarni aniqlab olish ahamiyatlidir. Tadqiqotlar gilos navlari ichida kurtaklarning bo'rtishi 2022 - yilgi ob - havo sharoiti o'tgan yilgiga nisbatan quruq va iliq kelishi, gullash davri 4 - kun ertaroq yani 27- fevral kundan, gul qopchalarining ochilishi 3- mart, gullashning boshlanishi 7- mart kunlari qayt etildi. Gilosning to'liq gulga kirishi "Lapins", "Vanda", "Burlat" navlarida ertaroq (16-17 mart), "Sammit", "Robin" navlarida o'rta (19-20 mart) "Regina", "Merchant", "Belgi" navlarida kech (23-25 mart) muddatlarga to'g'ri kelishi kuzatildi. Gullash darajasi bo'yicha "Lapins", "Merchant", "Burlat", "Vanda", "Belgi" navlarida eng yuqori ko'rsatkichlar qayt etildi.

O'tkazilayotgan tadqiqotlarimiz davomida gilosning erta pisharlik manbalari va donorlarini aniqlash imkoniyatini berdi. O'rganilayotgan navlar ichida "Lapins", "Robin", "Burlat", "Sammit", "Vanda" navlari ertapisharlik xususiyatlarini ko'rsatdi. Jumladan "Vanda", navida pishishning boshlanishi 2022 - yilgi kuzatishlarda 21- aprelda yoppasiga pishish 26 - aprel, to'liq pishish 01- may kuni kuzatilgan bo'lsa "Burlat" navida pishish jarayoni 25- aprelda, yoppasiga pishish 29 - aprel, to'liq pishish 04 - may kunlarida qayt etildi.

Gullash mudatlarining mos bo'lishi "Regina", "Merchant", "Belgi" navlarida gullash va pishish mudatlari nisbatan kechligi malum bo'ldi. Malumki gilosning sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan sifat ko'rsatkichlari ichida meva o'lchami yirikligi o'ta muhim hisoblanadi. Shuning uchun bog'bonlar kiyengi yillarda asosan yirik o'lchamli gilos navlari hisobiga bog' yaratishga ahamiyat bermoqda. Agarda gilosning bir dona mevasining og'irligi 7-10 gramlarni tashkil qilsa yoki undan ortiq bo'lsa demak yirik mevali ekanligiga asos bo'la oladi. Kolleksiyada mavjud navlar ichida mevasining yirikligi bo'yicha "Belgi" navining mevasi eng yirik ekanligi aniqlandi. Shunday bo'lsada mevasi yirik navlar qatoriga "Lapins", "Burlat" va "Vanda" navlarini kiritish mumkin. Demak, yuqoridagi navlar hisobiga bog' maydonlarini kengaytirish va ulardan seleksiya ishida foydalanish mumkin bo'ladi. Mevasining tashqi ko'rinishi tammi va umumiy sifat ko'rsatkichlari bo'yicha "Belgi", "Lapins", "Burlat", "Samit", "Vanda" navlarining boshqa navlardan ustunligi aniqlandi. Gilosning yuqoridagi 8 ta navi ustida olib borilgan tadqiqotlar hosildorlik tovar sifati, mevasining yirikligi, tami va umumiy sifat ko'rsatkichlari bo'yicha "Belgi", "Lapins", "Burlat", "Samit" navlarini yangi bog'lar tashkil qilishda hamda selliksiya ishlarida material sifatida foydalanish uchun tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abduqayimov Z.A. Shaumarov X.B. Istiqbolli payvandtaglar – intensiv tipdagi gilos bog'larini barpo qilishning muhim omili. O'zbekiston agrar fani xabarnomasi.- Toshkent, 2014. –b. 60-62.
2. Abduqayimov A, Bo'riyev X. Gilos bog'lari barpo qilish uchun innovation texnologiyalar asosida kuchsiz o'suvchi ko'chatlar yetishtirish. Toshkent. 2018 yil. b. -57-60.